

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022 №10

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AХВОРОТНОМАСИ



В Е С Т Н И К
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном
издательском комплексе
редакционно-издательского отдела
Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста : О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском
управлении печати и информации
Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом №
201/3 от 30 декабря 2013года
реестром ВАК в раздел медицинских наук
Рукописи, оформленные в соответствии

с прилагаемыми правилами, просим направлять
по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе
редакционно-издательского отдела ТМА.
100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА № 10, 2022

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор

проф. А.К. Шадманов

Заместитель главного редактора

проф. О.Р.Тешаев

Ответственный секретарь

проф. Ф.Х.Иноятова

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

Члены редакционного совета

д.п.н. Абдуллаева Р.М. (Ташкент)

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

СОДЕРЖАНИЕ

CONTENT

НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ
ТЕХНОЛОГИИNEW PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES

Пулатов Х.Х., Норбутаева М.К., Боймирзаев Н.И. ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАРКИБИЙ БЎЛАКЛАРИ	Pulatov Kh.Kh., Norbutaeva M.K., Boymirzaev N.I. THE STRUCTURE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES	9
Ergashov N.Sh., Parpiboyeva D.A., Salayeva M.S., Salimova N.D., Turbanova U.V. TIBBIYOT TALABALARI UCHUN "BEMOR XAVFSIZLIGI" FANI BEMORLAR XAVFSIZLIGINI YAXSHILASH UCHUN ILG'OR QADAM SIFATIDA	Ergashov N.Sh., Parpiboyeva D.A., Salayeva M.S., Salimova N.D., Turbanova U.V. "PATIENT SAFETY" FOR MEDICAL STUDENTS AS AN ADVANCED STEP TOWARDS IMPROVING PATIENT SAFETY	12

ОБЗОРЫ

REVIEWS

Бахриев И.И., Ешмуратов Б.А., Хасанова М.А., Хикматуллаев Р.З. ВИРТУАЛ АУТОПСИЯ СУД- ТИББИЁТИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТ УСУЛИ СИФАТИДА	Bakhriev I.I., Eshmuratov B.A., Xasanova M.A., Khikmatullaev R.Z. VIRTUAL AUTOPSY AS A MODERN METHOD OF FORENSIC MEDICINE RESEARCH	16
Нурузова З.А., Шадманова Н.А., Ёдгорова Н.Т. ЮҚУМЛИ КАСАЛЛИКЛАР ҚЎЗҒАТУВЧИЛАРИНИ МИКРОБИОЛОГИК ТАШХИСОТИДА ЗАМОНАВИЙ ПРЕСПЕКТИВ УСУЛЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ИМКОНИАТЛАРИ	Nuruzova Z.A., Shadmanova N.A., Yodgorova N.T. THE ROLE AND CAPABILITIES OF MODERN PROMISING METHODS IN THE MICROBIOLOGICAL DIAGNOSIS OF INFECTIOUS DISEASE CAUSATIVE AGENTS	21
Орынбаева З.Н., Нурузова З.А. РОЛЬ КИШЕЧНОЙ МИКРОФЛОРЫ ПРИ ЗАБОЛЕВАНИЯХ ПЕЧЕНИ	Orinbayeva Z.N., Nuruzova Z.A. THE ROLE OF INTESTINAL MICROFLORA IN THE DEVELOPMENT OF LIVER DISEASES	26
Степанова Н.М., Новожилов В.А., Черемнов В.С., Воропаева А.В., Пленкин И.С., Алтынбек А.К., Камилов Ж.Д. ТОТАЛЬНЫЙ АГАНГЛИОЗ ТОЛСТОЙ КИШКИ	Stepanova N.M., Novozhilov V.A., Cheremnov V.S., Voropaeva A.V., Plenkin I.S., Altynbek A.K., Kamilov J.D. TOTAL COLONIC AGANGLIONOSIS: A REVIEW	33
Туйчиев Л.Н., Таджиева Н.У., Исабаева Д.Х. Нигматова Л.М., Утепова Г.Б. ВОПРОСЫ ЭТИОЛОГИИ, ЭПИДЕМИОЛОГИИ И ПАТОГЕНЕЗА КОКЛЮША	Tuychiev L.N., Tadzhieva N.U., Isabaeva D.Kh., Nigmatova L.M., Uteпова G.B. QUESTIONS OF ETIOLOGY, EPIDEMIOLOGY AND PATHOGENESIS OF PERTUSSIS	38
Файзуллаева З.Р., Маматмусаева Ф.Ш. ОНКОГЕН ВИРУСЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ	Fayzullaeva Z.R., Mamatmusaeva F.Sh. CHARACTERISTICS OF ONCOGENIC VIRUSES	43
Халимова Х.М., Рахматуллаева Г.К., Худаярова С.М. НАРУШЕНИЕ МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА ПРИ ХБП И ЕГО ВЗАИМОСВЯЗЬ С РАЗВИТИЕМ ЦЕРЕБРОВАСКУЛЯРНЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ	Khalimova Kh.M., Rakhmatullaeva G.K., Khudayarova S.M. VIOLATION OF MINERAL METABOLISM IN CKD AND ITS RELATIONSHIP WITH THE DEVELOPMENT OF CEREBROVASCULAR COMPLICATIONS	47
Шукурова Ф.Н., Каримов М.Ш., Парпибоева Д.А. НСУ ИНДУЦИРЛАНГАН РЕВМАТОЛОГИК ХОЛАТЛАР: ТАШХИСЛАШ ВА ДАВОЛАШДАГИ МУАММОЛАР	Shukurova F.N., Karimov M.Sh., Parpiboeva D.A. HCV-INDUCED RHEUMATIC DISEASES: PROBLEMS OF DIAGNOSIS AND TREATMENT	51

Якубова М.М., Рахматуллаева Г.К., Саид-Ахмадова С.К. КЛИНИКО-НЕВРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОВИД-19 АССОЦИИРОВАННОГО ТРОМБОЗА КАВЕРНОЗНОГО СИНУСА

Yakubova M.M., Rakhmatullayeva G.K., Said-Akhmedova S.K. CLINICAL AND NEUROLOGICAL FEATURES OF COVID-19 ASSOCIATED THROMBOSIS OF THE CAVERNOUS SINUS

58

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ МЕДИЦИНА

EXPERIMENTAL MEDICINE

Бекназаров Ш.Й., Жуманиёзов Э.Х., Ганиева Н.Х., Бекназаров Ж.Ш., Хусанов А.Ш. СОСТОЯНИЕ НИЖНИХ ЭПИФИЗОВ БЕДРЕННЫХ КОСТЕЙ КРЫСЯТ ПРИ ОТРАВЛЕНИИ БЕРЕМЕННЫХ САМОК ИНДИЙСКОЙ КОНОПЛЕЙ

Beknazarov Sh.Y., Jumaniyozov E.X., Ganieva N.X., Beknazarov J.Sh., Xusanov A.Sh. THE CONDITION OF THE LOWER EPIPHYSES OF THE FEMORAL BONES OF RATS DURING POISONING OF PREGNANT FEMALES FROM INDIAN CANNABIS

62

Джанаев Ф.Ю., Аллаева М.Ж., Аллаберганов Д.Ш., Ачилов Д.Д. ИНДОМЕТАЦИН ТАЪСИРИДА РИВОЖЛАНГАН ГАСТРОПАТИЯ МОДЕЛИДА ЛЕСБОХОЛ, МИЗОПРОСТОЛ ВА МУКАГЕННИНГ ГАСТРОПРОТЕКТОР ФАОЛЛИГИНИ МОРФОФУНКЦИОНАЛ ҚИЁСИЙ БАҲОЛАШ

Djanaev G.Yu., Allaeva M.J., Allaberganov D.Sh., Achilov D.D. COMPARATIVE MORPHOFUNCTIONAL EVALUATION OF THE GASTROPROTECTIVE ACTIVITY OF LESBOXOL, MISOPROSTOL AND MUCAGEN IN A MODEL OF INDOMETHACIN-INDUCED GASTROPATHY

66

Мадаминава Г.И., Азизова Ф.Х., Собирова Д.Р., Отажонова А.Н., Миртолипова М.А. ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ГИПОФИЗАРНО-ТИРЕОИДНО-ЯИЧКОВОЙ СИСТЕМЫ ПОТОМСТВА, ПОЛУЧЕННОГО В УСЛОВИЯХ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ГИПОТИРЕОЗА У САМОК

Madaminova G.I., Azizova F.Kh., Sobirova D.R., Otajonova A.N., Mirtolipova M.A. FUNCTIONAL STATE OF THE PITUITARY-THYREOID-TESTICULAR SYSTEM OF OFFSPRING OBTAINED UNDER CONDITIONS OF EXPERIMENTAL HYPOTHYROIDISM IN FEMALES

76

Машарипова Ш.С., Хударгенова Д.Р., Машарипов С., Машарипов А.С. СПОСОБ ПОЛУЧЕНИЯ ПРЕЦИПИТИРУЮЩИХ СЫВОРОТОК ДЛЯ ВЫЯВЛЕНИЯ СЕМЕННОЙ ЖИДКОСТИ ЧЕЛОВЕКА, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ПРИ ИССЛЕДОВАНИИ ВЕЩЕСТВЕННЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В СУДЕБНО-БИОЛОГИЧЕСКИХ ЛАБОРАТОРИЯХ

Masharipova Sh.S., Khudargenova D.R., Masharipov S., Masharipov A.S. METHOD FOR OBTAINING PRECIPITATING SERA TO DETECT THE PRESENCE OF HUMAN SEMINAL FLUID USED IN THE STUDY OF MATERIAL EVIDENCE IN FORENSIC BIOLOGICAL LABORATORIES

81

Хакимов З.З., Рахманов А.Х., Курбанниёзова Ю. ВЛИЯНИЕ АНТИГИПОКСАНТОВ НА НЕКОТОРЫЕ БИОХИМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПЕЧЕНИ МЫШЕЙ ПРИ НОРМОБАРИЧЕСКОЙ ГИПОКСИИ С ГИПЕРКАПНИЕЙ

Khakimov Z.Z., Rakhmanov A.Kh., Kurbanniyozova Yu. INFLUENCE OF ANTIHYPOXANTS ON SOME BIOCHEMICAL INDICATORS OF MICE LIVER IN NORMOBARIC HYPOXIA WITH HYPERCAPNIA

84

Хасанова М.А., Эрматов Н.Ж., Бахриев И.И., Ашурова Н.Д., Холматова К.И. ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА ЎСУВЧИ КАРТОШКА НАВЛАРИДАГИ ЛЕКТИНЛАРНИ ЎРГАНИШ ВА УНИ МАНИЙ ДОҒЛАРИ СУД ТИББИЙ ЭКСПЕРТИЗАСИДА ҚЎЛЛАШ

Xasanova M.A., Ermatov N.J., Bakhriev I.I., Ashurova N.D., Xolmatova K.I. THE STUDY OF LECTINS IN POTATO VARIETIES GROWING ON THE TERRITORY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ITS APPLICATION IN THE FORENSIC EXAMINATION OF SPERM

90

КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА

CLINICAL MEDICINE

Азимов А.Т. ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ОСТРЫХ ЦЕРЕБРОВАСКУЛЯРНЫХ ОСЛОЖНЕНИЙ ПРИ ТЯЖЕЛОМ ТЕЧЕНИИ COVID-19

Azimov A.T. PREDICTION OF ACUTE CEREBROVASCULAR COMPLICATIONS IN SEVERE COVID-19

94

Аллаева М.Ж., Ачилов Д.Д., Абдурахманов Ф.Ф., Аскарлов О., Холматов Ж.А., Султанов С.А. ЭФФЕКТИВНОСТЬ И БЕЗОПАСНОСТЬ ФЛУОКСЕТИНА У ПАЦИЕНТОВ С УРОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛЕЧЕНИЯ	Allaeva M.J., Achilov D.D., Abdurakhmanov F.F., Askarov O., Kholmatov J.A., Sultanov S.A. EFFICACY AND SAFETY OF FLUOXETINE IN PATIENTS WITH UROLOGIC DISEASE: A COMPARATIVE TREATMENT ANALYSIS	99
Амонов Ш.Э., Ражабов А.Х., Файзуллаев Т.С. ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ ОСЛОЖНЕНИЙ ХРОНИЧЕСКОГО РИНОСИНУСИТА У ДЕТЕЙ С ХРОНИЧЕСКИМ ГЕПАТИТОМ В	Amonov Sh.E., Razhabov A.Kh., Fayzullaev T.S. PREVENTION OF COMPLICATIONS OF CHRONIC RHINOSINUSITIS IN CHILDREN WITH CHRONIC HEPATITIS B	104
Бафоева З.О. COVID-19 НИНГ ҚОЛДИҚ АСОРАТЛАРИ УЧРАГАН БЕМОРЛАРДА, ИНДИВИДУАЛ РЕАБИЛИТАЦИЯ ДАСТУРИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ	Bafoeva Z.O. EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF AN INDIVIDUAL REHABILITATION PROGRAM IN PATIENTS WITH RESIDUAL COMPLICATIONS OF COVID-19	108
Лочинов Ф.Н., Бахриев И.И., Пўлатов М.М., Ботиров Т.К., Норов А.Т. МИОКАРД ИНФАРКТИДАН ЎЛИМ ҲОЛАТЛАРИНИНГ СУД-ТИББИЙ ТАҲЛИЛИ	Lochinov F.N., Bakhriev I.I., Pulatov M.M., Botirov T.K., Norov A.T. FORENSIC ANALYSIS OF DEATH CASES FROM MYOCARDIAL INFARCTION	113
Бекназаров Ш.Й., Жуманиёзов Э.Х., Шодиев Г.Б., Бекназаров Ж.Ш., Хужаназаров Д.А. ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИ НАТИЖАСИДА ЎЛИМ ҲОЛАТЛАРИНИНГ СУД ТИББИЙ ТАҲЛИЛИ	Beknazarov Sh.Y., Jumaniyozov E.X., Shodiev G.B., Beknazarov J.Sh., Xujanazarov D.A. FORENSIC ANALYSIS OF MORTALITY FROM A ROAD ACCIDENT	117
Бобожонова.Ш.Д., Саидов.А.Б., Рустамова.Н.Х., Собиров.А.Б. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА БРУЦЕЛЛЁЗ ИНФЕКЦИЯСИНИ ҚОН ДОНОРЛАРИДА АНИҚЛАНИШИНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ТАҲЛИЛИ	Bobojonova Sh.D., Saidov A.B., Rustamova N.Kh., Sobirov A.B. RETROSPECTIVE ANALYSIS OF THE DETECTION OF BRUCELLOSIS INFECTION IN BLOOD DONORS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	120
Visogortseva O.N., Boisov S.K. МИОФАСИАЛ ОГ'РИҚ СИНДРОМИ БОР БЕМОРЛАРДА МЕХАНИК ТАБИАТЛИ ФИЗИК ОМИЛЛАРИНИ ҚО'ЛЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ	Visogortseva O.N., Boisov S.K. FEATURES OF THE APPLICATION OF PHYSICAL FACTORS OF MECHANICAL NATURE IN PATIENTS WITH MYOFASIAL PAIN SYNDROME	123
Yodgorova N.T., Fayzullayeva Z.R., Tursunova SH.A. ПРОБИОТИКЛАРНИНГ ПЕДИАТРИЯДА ҚО'ЛЛАНИШ ВА УЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ВАҲОЛАШ	Yodgorova N.T., Fayzullayeva Z.R., Tursunova Sh.A. APPLICATION OF PROBIOTICS IN PEDIATRICS AND EVALUATION OF THEIR EFFICIENCY	128
Каримов М.Ю., Иноятлова Ф.Х., Гулямов Ё.Б. ОСОБЕННОСТИ АКТИВНОСТИ NO-СИСТЕМЫ В СИНОВИАЛЬНОЙ ЖИДКОСТИ И ЕЁ ВЗАИМОСВЯЗЬ С КЛИНИЧЕСКИМИ СИМПТОМАМИ У БОЛЬНЫХ АРТРОЗАМИ И АРТРИТАМИ	Karimov M.Yu., Inoyatova F.Kh., Gulyamov Y.B. FEATURES OF THE ACTIVITY OF THE NO-SYSTEM IN THE SYNOVIAL FLUID AND ITS RELATIONSHIP WITH CLINICAL SYMPTOMS IN PATIENTS ARTHROSIS AND ARTHRITIS	133
Kudiyarov I.A. YIRINGLI YALLIG'LANISH	Kudiyarov I.A. THE ROLE OF ST. AURELIUS IN	

Нигматова Г.М., Хамраев Х.Х. НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ДИАГНОСТИКЕ И ТАКТИКЕ ВЕДЕНИЯ ЖЕНЩИН С ПРЕЭКЛАМПСИЕЙ	Nigmatova G.M., Khamraev Kh.Kh. NEW APPROACHES IN THE DIAGNOSIS AND MANAGEMENT OF WOMEN WITH PREECLAMPSIA	149
Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. ME'DA SARATONI KELIB CHIQISHIGA SHUBHA QILINGAN BEMORLARDA HELICOBACTER PYLORI O'RNINI ANIQLASH	Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R. DETECTION OF HELICOBACTER PYLORI IN PATIENTS WITH SUSPECTED GASTRIC CANCER	153
Рахимова М.Б., Ахмедов Х.С., Саидмуродова М.С. ОЦЕНКА КАРДИОВАСКУЛЯРНОГО РИСКА НА ФОНЕ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ДИСФУНКЦИИ У БОЛЬНЫХ С АНКИЛОЗИРУЮЩИМ СПОНДИЛОАРТРИТОМ	Rakhimova M.B., Akhmedov Kh.S., Saidmurodova M.S. EVALUATION OF CARDIOVASCULAR PERIL ON ENDOTHELIAL DYSFUNCTION BASE IN PATIENTS WITH ANKYLOSING SPONDYLITIS	158
Тешаев О.Р., Мурадов А.С. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАСЧЕТА РЕЗЕКЦИИ АНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ ЖЕЛУДКА ПРИ ПРОДОЛЬНОЙ РЕЗЕКЦИИ ЖЕЛУДКА	Teshaev O.R., Murodov A.S. MATHEMATICAL MODEL FOR CALCULATING THE RESECTION OF THE ANTRAL PART OF THE STOMACH WITH A LONGITUDINAL RESECTION OF THE STOMACH	164
Hakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. SUD TIBBIYOTI AMALIYOTIDA POSTASFIKTIK HOLATLARNI VAHOLASHNING ANAMIYATI	Khakimov S.A., Bakhriyev I.I., Sultanov S.B., Gulyamov D.E. VALUE OF ASSESSING POSTAFICTIC CIRCUMSTANCES IN JURISPRUDENCE	168
Шукурова У.П., Ходжиметов А.А., Мухамедова Н.Х., Бауетдинова Г.Д. СОДЕРЖАНИЕ РЕГУЛЯТОРНЫХ ПРОСКЛЕРОТИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ НЕФРОСКЛЕРОЗЕ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ ПИЕЛОНЕФРИТЕ	Shukurova U.P., Khodzhimetov A.A., Mukhamedova N.Kh., Bauyetdinova G.D. THE CONTENT OF REGULATORY PROSCLEROTIC MARKERS OF NEPHROSCLEROSIS IN CHRONIC PYELONEPHRITIS	171
Юлдашева Д.Ю., Ирнazarова Д.Х., Мамадалиева У.П. ПАТОМОРФОЛОГИЯ МИОМЫ МАТКИ	Yuldasheva D.Y., Kayumova D.T., Irnazarova D.X.P ATHOMORPHOLOGY OF UTERINE FIBROIDS	175

ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ

HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY

Абдукахарова М.Ф., Матназарова Г.С., Неъматова Н.У. ВНУТРИБОЛЬНИЧНЫЕ ИНФЕКЦИИ И ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫЕ ОСЛОЖНЕНИЯ В ХИРУРГИЧЕСКИХ ОТДЕЛЕНИЯХ	Abdukakharova M.F., Matnazarova G.S., Nematova N.U. HOSPITAL INFECTIONS AND POSTOPERATIVE COMPLICATIONS IN SURGICAL DEPARTMENTS	180
Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. O'TKIR ISHAK KASALLIKLARINING SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARI BO'YICHA UCHRASH DARAJASI	Yodgorova N.T., Nematov A.S., Mustanov A.N. LEVEL OF ACUTE INTESTINAL DISEASES IN THE REGIONS OF SURKHANDARYA REGION	184
Мадреимов А.М., Матназарова Г.С., Брянцева Е.В., Маденбаева Г.И. О НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ САНИТАРНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН И ИХ ВЛИЯНИИ НА ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫМИ НОВООБРАЗОВАНИЯМИ	Madreimov A.M., Matnazarova G.S., Bryantseva E.V., Madenbaeva G.I. ON ADVERSE SANITARY AND ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN AND THEIR INFLUENCE ON THE INCIDENCE OF MALIGNANT NEOPLASMS	188
Неъматова Н.У., Матназарова Г.С., Абдукахарова М.Ф. ВИЧ-ИНФЕКЦИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	Nematova N.U., Matnazarova G.S., Abdukakharova M.F. HIV- INFECTIONS IN UZBEKISTAN	194

ME'DA SARATONI KELIB CHIQISHIGA SHUBHA QILINGAN BEMORLARDA *HELICOBACTER PYLORI* O'RNINI ANIQLASH

Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ *HELICOBACTER PYLORI* У БОЛЬНЫХ С ПОДОЗРЕНИЕМ НА РАК ЖЕЛУДКА

Нурузова З.А., Маматмусаева Ф.Ш., Алиев Ш.Р.

DETECTION OF *HELICOBACTER PYLORI* IN PATIENTS WITH SUSPECTED GASTRIC CANCER

Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Резюме.

Цель исследования. Оценка чувствительности *Helicobacter pylori* к антибиотикам у больных раком желудка **Материалы и методы:** РИО и РИАТИМ (Республиканский специализированный научно-практический исследовательский центр онкологии и радиологии) исследовали сыворотку крови и желудочное содержимое 85 больных раком желудка и MALT-лимфомой в возрасте 30-70 лет. **Анализ и обсуждение результатов.** Для скрининга был отобран 41 пациент с раком желудка и 44 пациента с MALT-лимфомой желудка. Основную группу составили 27 (65,8%) больных раком желудка. Диагноз рака желудка у этих пациентов был подтвержден эндоскопическим исследованием и проведено серологическое исследование ИФА для определения концентрации *H.pylori*. Когда было подтверждено, что у них высокая концентрация этой бактерии, таких больных привлекали к бактериологическому обследованию. **Заключение.** По результатам нашего исследования на антибиотикорезистентность необходимо выявить *H.pylori* и выполнить антибиотикограмму. В ходе наших обследований было установлено, что по результатам бактериологического исследования препаратами выбора в лечении являются левофлоксацин, амоксициллин, тетрациклин, клотримидин.

Ключевые слова: рак желудка, *Helicobacter pylori*, MALT-лимфома, антибиотики.

Resume.

The purpose of the study. Assessment of the sensitivity of *Helicobacter pylori* to antibiotics in patients with gastric cancer **Materials and methods:** RIO and RIATIM (Republican Specialized Scientific-Practical Research Center of Oncology and Radiology) examined the blood serum and gastric contents of 85 patients aged 30-70 years with gastric cancer and MALT lymphoma. **Analysis and discussion of results.** Forty-one patients with gastric cancer and 44 patients with gastric MALT lymphoma were selected for screening. The main group was 27 (65.8%) patients with gastric cancer. The diagnosis of gastric cancer in these patients was confirmed by endoscopic examination and IFA serological examination was performed to determine the concentration of *H. pylori*. When it was confirmed that the concentration of this bacterium was high in them, such patients were involved in bacteriological examination. **Conclusion.** According to the results of our study on antibiotic resistance, it is necessary to identify *H. pylori* and perform an antibioticogram. During our examinations, it was found that based on the results of bacteriological examinations, the drugs of choice in treatment are levofloxacin, amoxicillin, tetracycline, chloritromycin.

Key words: gastric cancer, *Helicobacter pylori*, MALT lymphoma, antibiotics.

Dolzarbliigi: *Helicobacter pylori* insonning eng keng tarqalgan patogenlaridan biri bo'lib, uning infeksiyasi gastroduodenal zonaning bir qator kasalliklarini rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi. Oshqozon-ichak traktining bir qator kasalliklarini shakllantirishda *Helicobacter pylori* (HP) mikroorganizmining etiopatogenetik roli kashf qilinganiga chorak asrdan oshdi. 2008 yil apreldan 2009 yil iyunigacha Yevropaning 18 davlatida *H.pylori* ning birlamchi antibiotiklarga chidamliligi darajasi aniqlangan. 2204 bemordan kattalar uchun *H.pylori* ga qarshilik darajasi klaritromitsin uchun 17,5%, levofloksatsin uchun 14,1% va metronidazol uchun 34,9% ni tashkil etgan va G'arbiy/Markaziy va Janubiy Evropada (>20%) klaritromitsin va levofloksatsin uchun Shimoliy mamlakatlarga qaraganda talab ancha yuqori edi. *Helicobacter pylori* (HP) - odamlarda eng ko'p uchraydigan infeksiya

bo'lib, Moskvada bu infeksiyaning tarqalishi 60,7-88%, Sankt-Peterburgda 63,6%, Sharqiy Sibirda 90%ga etadi. Evropada *H.pylori* ning antibakterial qarshilik darajasini istiqbolli baholash va turli mamlakatlarda ambulator antibiotiklardan foydalanish va qarshilik darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun tadqiqot o'tkazildi.

Ko'pgina mamlakatlarda klaritromitsinga qarshilikning yuqori darajasi endi *H.pylori*ga qarshi standart rejimlarda empirik foydalanishga imkon bermaydi. Ambulator antibiotiklarni iste'mol qilish bo'yicha bilim *H.pylori* ning xinolonlar va makrolidlarga sezuvchanligini bashorat qilish va davolash strategiyasini moslashtirish uchun oddiy vosita bo'lishi mumkin (4)

Hozirgi kunda me'da saratoni dunyodagi etakchi va ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklardan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy tushunchalarga ko'ra, *Helicobacter*

H.pylori infeksiyasi surunkali gastrit va oshqozon yarasi patogenezida etakchi rol o'ynaydi. Odamlarning HP bilan kasallanishining yuqori darajasi, bakteriyalarning kanserogen xususiyatlari va oshqozon yarasining keng tarqalishi patogen bilan kurashish uchun erta tashxislash muhimdir.

Tadqiqot maqsadi. Oshqozon saratoni bilan kasallangan bemorlarda *Helicobacter pylori* rining antibiotiklarga sezgirligini baholash


Materiallar va tekshiruv usullari: RIO va RIATIM (Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tekshirish markazi) da 30-70 yoshli me'da saratoni va MALT limfomasi bilan og'rigan 85 nafar bemorning qon zardobi va zararlangan me'da bo'lagi tekshirildi. Tekshirish usuli sifatida IFA (immunoferment analizi) va bakteriologik metod qo'llanildi. IFA usulida kasalligi tasdiqlangan bemorlardan keyingi tahlillar uchun qon namunalari olinib, maxsus antigen antitelo mosligiga asoslangan IFA usulidan foydalanildi. Bu usulning qulayligi shundaki kasllikka sabab bo'ladigan mikroorganizimning titrini biologik materialdan 1mkl miqdorda ham aniqlaydi.

Bakteriologik metod ancha keng qo'llaniladigan usullardan biri bo'lib, usul mohiyati antibiotiklarni to'g'ri qo'llash orqali davolovchi shifokorning davolash ishi samarasini oshiradi.

Natijalar tahlili va muhokamasi. Tekshirish uchun 41 nafar me'da saratoni, 44 nafar me'da MALT limfomasi bilan og'rigan bemorlar tanlab olindi. Me'da saratoni bilan og'rigan 27 (65.8%) nafar bemorlarasosiy

guruh hisoblandi. Bu bemorlarda "Me'da saratoni" tashxisi endoskopik tekshiruv natijasida tasdiqlandi va *H.pylori* konsentratsiyasini aniqlash maqsadida IFA serologik tekshirish usuli o'tkazildi. Ularda bu bakteriyaning konsentratsiyasi yuqori ekanligi tasdiqlangach, bunday bemorlar bakteriologik tekshiruvga jalb qilindi.

MALT limfomasiga shubha qilingan bemorlar orasidan 29 (65,9%) nafarida endoskopik tekshiruv o'tkazish natijasida taxminiy tashxisni tasdiqlovchi elementlar namoyon bo'ldi va bu bemorlardan qon namunalari olinib, IFA serologik metod yordamida tekshirildi. Biz bu usul orqali aynan me'da saratoniga sabab bo'ladigan *H.pylorini* etiologik omil ekanligini isbotlash uchun vosita qilib tanlab oldik. Tahlil natijasida 56 nafar bemorda summarniy antitelolar titri 10,5 OE dan baland ekanligi aniqlandi. Demak bu natija bizga shunday xulosa beradiki aniqlangan bemorlar me'dasining turli sohalaridan 5 xil biopstatlar olindi va aseptika qoidalariga rioya qilgan holda transport uchun mo'ljallangan tioglikol muhitiga joylashtirildi va bir soat ichida bakteriologik laboratoriyaga yuborildi. Mikroanoerostatda 3-4 kun davomida inkubatsiya qilingandan so'ng, agar koloniyalar o'sishi kuzatilmasa, yana 5-7 kun qoldirildi. Me'da saratoni tashxisi aniqlangan bemorlar orasidan 20 (75,6%) nafarida, shuningdek MALT limfomasi tashxisi tasdiqlangan bemorlarda esa 22 (75,0%) nafarida musbat natija kuzatildi. Umumiy hisobda 42 (75.3%) nafar bemorda musbat natija, ya'ni *H.pylori* bakteriyasi aniqlandi [1-diagramma].




1-diagramma. Meda saratoni va MALT limfomasi bilan og'rigan bemorlar orasida *H.pylori* uchrash chastotasi-ning taqoslama tahlili

Ekmalarning aksariyatida "Me'da saratoni" bilan og'rigan bemorlarning 17 (82,9%) nafarida, shuningdek MALT limfomasi tashhisidagi bemorlarning 19 (84,1%) nafarida yakka, kichkina tiniq, ba'zan esa markazi qoramtir koloniyalar o'sib chiqdi. Asosiy guruh bemorlarimizning 3 (17.1%) nafarida, qo'shimcha guruh bemorlarimizning esa 3 (15,9%) nafarida *H.pylorini* ko'plab koloniyalari qo'shib o'sganligi kuzatildi. Bu esa me'daning bakteriya bilan yuqori darajada kontaminatsiyaga uchraganligini ko'rsatadi.

Olingan biopstatlarning infeksiya bilan zararlanish darajasi o'rganilganda aniqlandiki, hech qaysi bemordan olingan barcha 5 biopstatlarda bakterial koloniyalarning birdek o'sishi kuzatilmadi. Aksincha, asosiy guruhda quyidagicha naticha bo'ldi: 3 (14.6%) nafar bemorlardan olingan biopstatlarning 4 tasida koloniyalar o'sdi, 9 (46.3%) nafarida esa 3 tadan biopstat zararlanganligi kuzatildi, 6 (29,3%) nafar bemordan olingan namunalarning 2 tasida o'sish kutilgan bo'lsa, 2 (9,8%) nafar bemorlarning 1 tadan biopstatidagina koloniyalar-

ning o'sishi aniqlandi. Qo'shimcha guruhda natijalar quyidagicha ko'rinishni egalladi: 3 (13,6%) nafar bemordan olingan biopatlarning 4 tasida koloniyalar o'sdi, 10 (45,5%) hafarida esa 3 tadan biopatat zararlanligi kuzatildi, 6 (29,5) nafar bemordan olingan namunalarning 2 tasida o'sish kutilgan bo'lsa, 3 (11,4%) nafar bemorlarning 1 tadan biopatatidagina koloniyalar-

ning o'sishi aniqlandi. Olingan natijalar bakteriologik tahlil uchun me'daning turli sohalaridan ikki yoki uchtdan kam bo'lmagan biopatatlar olinishi kerakligini ko'rsatdi. Me'daning aynan qaysi sohasi bakterial kontaminatsiyaga uchraganligini aniqlash maqsadida biopatlarni olingan soha bo'yicha taxlil qilib chiqdik [2-diagramma].




2-diagramma. Biopatatlar zararlanishining miqdoriy xususiyatlari

Me'daning antral qismi katta egriligidan olingan birinchi biopatatda eng kam natija kuzatildi va 24,4% holatlarda infitsirlanish aniqlandi. Ikkinchi biopatat ham me'daning aynan shu sohasidan, ammo kichik egriligidan olingan bo'lib, 60% holatlarda koloniyalarning o'sishi kuzatildi. Uchunchi namuna medaning kardial qismidan olingan bo'lib, 53,3% bemorlarda musbat ekanligi aniqlandi. Eng ko'p musbat natija 68,9% bilan medaning proksimal qismidan olingan 4-biopatatda aniqlandi. Va so'ngi 5-biopatat me'daning burchak sohasidan olingan bo'lib, 48,8% holatlarda *H.pylori* bilan kontaminatsiyalangan bo'lib chiqdi. Olingan natijalardan ma'lum bo'ladiki, me'daning antiral va tana qismidan olingan biopatatlar me'daning *H.pylori* bilan infitsirlanishi to'g'risida eng ko'p malumot beradi. Shuning uchun bakteriologik va gistologik tekshiruvlar uchun ma-

terial olishdayuqoridagi holatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Tekshiruvimizning keyingi bosqichida Myullera-Xintonning qonli agarli muhitida *H.pylorini* ajratib olingan ekmasida davolashda eng ko'p qo'llaniladigan atnibiotiklarga nisbatan sezgirligini aniqladik. Bunda biz klaritromitsin, amoksitsilin, metronidazol, levofloksatsin, refampitsin va tetrosiklinga hamda qo'shimcha ravishda levomitsitin va doksitsiklinga nisbatan sezgirligini tekshirdik. Olingan natijalarni tahlili shuni ko'rsatdiki, *H.pylorini* 45 ta tekshirilgan shtammlaridan faqat bittasigina (2,2%) polirezistent, yani bir vaqtning o'zida 4 ta antibiotikka sezgirligini yo'qotgan bo'lib chiqdi. 11 (24,4 %) ta shtammi 3 ta antibiotikka, 8 (17,8 %) ta shtammi 2 ta antibiotikka va ko'proq shtammlari (22) tekshiruvdagi 8 ta anitibotiklarning 1 tasiga rezistent bo'lib chiqdi.



3-diagramma. *H.pylorini* antibiotikka rezistentlik tahlili

H.pylori ning biroz chidamli shtammlarning darajasi quyidagicha taqsimotda namoyon bo'ldi: 1 ta antibiotikka 6 (13.3%) shtammlar, 2ta antibiotikka chidamlilik – 13 (28.9%) va 3 ta antibiotikka biroz rezistentlik 3 ta (6.7%) shtammida namoyon bo'ldi. *H.pylori* ning ajratib olingan shtammlarini antibiotikogramma bo'yicha tahlil qilinganda, ko'pchilik shtammlar livof-

loksatsinga sezgirliги aniqlandi -39 (86.6%), eng kam bakterial sezgirlik saqlanib qolgan antibiotiklar refampitsin va levomitsitin - 24 (53.3%) bo'lib chiqdi. Metronidazol va doksitsiklin 28 ta (62.2%) shtammga nisbatan faolligini saqlab qolgan; amoksatsilin va tetratsiklinga 34 (75.6%) ta shtamm va kloritromitsinga 32 (71.1%) ta shtamm sezgirligini yo'qotmagan [1-jadval].

1-jadval

***H.pylori* shtammlarining antibakterial preparatlarga nisbatan sezgirliги**

Preparat	Sezgir (%)	Biroz chidamli(%)	Chidamli(%)
Levofloksatsin	86.6	6.7	6.7
Klaritromitsin	71.1	13.3	15.6
Amoksatsillin	75.6	6.7	17.7
Tetratsiklin	75.6	13.3	11.1
Doksitsiklin	62.2	6.7	30.1
Metronidazol	62.2	17.8	20.0
Pifampitsin	53.3	20	26.7
Levometsitin	55.5	13.2	31.3

Shuni ta'kidlash lozimki, *H.pylori* chaqirgan infeksiyon jarayonda birinchi qator dori vositasi sifatida klaritromitsin ishlatiladi, ammo unga nisbatan sezgirlik turli davlatlarda turlicha hisoblanadi. Bizni hududimizdagi holat 1-jadvaldan ko'rinib turganidek, biroz chidamli bo'lgan holatlar 15% shtammlarda, yuqori chidamli bo'lgan shtammlar 15% dan ko'proqni tashkil qilgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, bizning hududimizda *H.pylori* klaritromitsinga nisbatan chidamliligi bo'yicha chegaraviy holatda turibdi, ya'ni davolashdan oldin bakteriyaning preparatga nisbatan chidamliligini tekshirib ko'rish zarur.

H.pylori ning davosida ko'p qo'llaniladigan va e'tiborga molik keyingi dori vositalar amoksitsillin va metronidazoldir. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, dunyo bo'yicha amoksitsilinga nisbatan chidamlilik 14.67%, metronidazolga nisbatan esa 47.22%ni tashkil qiladi. Bizning tahlilimizda amoksitsilinga nisbatan chidamlilikni yuqori chiqishi unung yuqori nafas yo'llari kasalliklarida ko'p qo'llanilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Metronidazolga nisbatan 9 ta (20%) shtammlar chidamli bo'lsa, 8 (17.8%) tasida biroz chidamlilik kuzatildi.

Xulosa. Antibiotiklarga chidamlilik bo'yicha o'tkazgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra ma'lum bo'ladiki, *H.pylori* ni aniqlash va antibiotikogramma o'tkazish zarur hisoblanadi. Tekshiruvlarimiz davomida aniqlandiki, bateriologik tekshiruvlar natijasi asosida, davolashda tanlov dori vositalari bo'lib levofloksatsin, amoksatsilin, tetratsiklin, kloritromitsin xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Bordin DS, Embutnieks Yu.V., Vologzhanina LG va boshqalar. *Helicobacter pylori* Evropa reestri (Hp - Eureg): Rossiya'da birinchi darajali terapiya olgan 2360

bemor ma'lumotlarining tahlili. *Terapevtik arxiv* 2018; 90 (2): 35-42

2. Gisbert JP, Aguado B., Luna M. va boshqalar. Gastrik MALT limfoma: *H. pylori* infeksiyasining klinik xususiyatlari va tarqalishi. 37 holatlar ketma-ketligida. *Rev Esp Enferm Dig.* 2016. Sent. 98 (9). S. 655-65.

3. Hoi JKY, Lai WY, Ng WK, Suen MMY, Underwood FE, Tanyingoh D, Mafertheiner P, Graham) DY, Wong VWS, Wu JCY, Chan FKL, Sung JYJ, Kaplan GG, Ng SC. *Helicobacter pylori* infeksiyasining global tarqalishi: tizimli tekshirish va meta-tahlil. *Gastroenterologiya.* 2017; 153: 420-9. Doi: 10.1053 / j.gastro.2017.04.022.

4. Maev I.V. // Klinik ahamiyatga ega) HELICOBACTER PYLORI INFEKTSION HAQIDA // Klinik tibbiyot, N 8, 2013, 4-12 st).

5. Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Abdusoatova M.A./ *Helicobacter pylori* shtammlarining antibiotiklarga sezgirliğini aniqlash va davolash samarasini oshirishda qo'llanilishi// Tibbiyotda yangi kun, N 2 (40), 2022, 137-141 b).

6. Rozdeev O.K., Pozdeeva A.O., Valeeva Yu.V.// Me'da shilliq qavatining epiteliyasi bilan *Helicobacter pylori* ning o'zaro ta'sir mexanikasi. *Tomonidan.* 2018-yil. 2, 253-261 betlar.

7. Vordin DS, Embutnieks YV, Vologzhanina LG, va boshqalar. al. *Helicobacter pylori* infeksiyasini boshqarish bo'yicha Evropa reestri (Nr-EuReg): Rossiya'da birinchi darajali davolanayotgan 2360 bemorning tahlili. *Terapevtik arxiv.* 2018; 90 (2): 35-42 (Rus tilida).] doi: 10.26442 / terarkh201890235-42.

8. Zucca E. ESMO diagnostikasi, davolash va davolash bo'yicha klinik ko'rsatmalar. oshqozon MALT limfomasini kuzatish. Tibbiy onkologiya bo'yicha Evropa jamiyatining minimal klinik ko'rsatmalari (ESMO). Moskva. 2017. S. 276-278.

ME'DA SARATONI KELIB CHIQISHIGA SHUBHA QILINGAN BEMORLARDA *HELICOBACTER PYLORI* O'RNINI ANIQLASH

Nuruzova Z.A., Mamatmusayeva F.Sh., Aliyev Sh.R.

Annotatsiya. Tadqiqot maqsadi. Oshqozon saratoni bilan kasallangan bemorlarda *Helicobacter pylori* rining antibiotiklarga sezgirligini baholash **Materiallar va usullar:** RIO va RIATIM (Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tadqiqot markazi) tomonidan 30-70 yoshdagi 85 nafar oshqozon saratoni va MALT-limfoma bilan kasallangan bemorlarning qon zardobi va oshqozon tarkibi o'rganildi. **Natijalar tahlili va muhokamasi.** Oshqozon saratoni bilan og'rigan 41 bemor va oshqozon MALT limfomasi bo'lgan 44 bemor skrining uchun tanlangan. Asosiy guruhni

oshqozon saratoni bilan og'rigan 27 (65,8%) bemor tashkil etdi. Ushbu bemorlarda oshqozon saratoni tashxisi endoskopik tekshiruv bilan tasdiqlandi va *H. pylori* kontsentratsiyasini aniqlash uchun serologik Elishay o'tkazildi. Ularda ushbu bakteriyaning yuqori konsentratsiyasi borligi tasdiqlangach, bunday bemorlar bakteriologik tekshiruvga jalb qilingan. **Xulosa.** Antibiotiklarga qarshilik bo'yicha tadqiqotimiz natijalariga ko'ra, *H. pylori* ni aniqlash va antibiogrammani o'tkazish kerak. Tekshiruvlarimiz davomida, bakteriologik tekshiruv natijalariga ko'ra, davolashda levofloksatsin, amoksatsillin, tetratsiklin, xloritromitsin tanlanadigan dorilar ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *Helicobacter pylori*, oshqozon saratoni, MALT-limfoma, antibiotiklar.

